

SEMINAR BO‘LIB O‘TDI



Bugun Termiz shahar hokimi O‘.I.To‘rayev va sektor rahbarlari tomonidan Termiz shahridagi 12-sonli maktabda 1-,3-sektor mas‘ullari uchun, 26-sonli maktabda 2,-4-sektor mas‘ullari uchun “Ma‘naviyat sektori” faoliyatini samarali tashkil etish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrda PF-209-sonli Farmoni va PQ-402-sonli qarorining mazmun-mohiyatini targ‘ib qilish va ijrosini ta‘minlash bo‘yicha seminar-yig‘ilishlari o‘tkazildi.

Unda sektor rahbarlari, shahardagi barcha mahalla fuqarolar yig‘inlarining raislari, hokim yordamchilari, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektorlari, soliq inspektori va ijtimoiy xodimlar, maktab direktorlari va ularning ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari, tegishli tashkilot va muassasalar rahbarlari ishtirok etdi.



